

UDK: 334/336

**O‘ZBEKISTONDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANISHIDA
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING O‘RNI.**

Maroziqov Akmal Abdurashidovich

Qo‘qon Davlat universiteti dotsenti, (PhD).

Qo‘qon, O‘zbekiston.

Annotatsiya: O‘zbekiston mustaqillikka erishganning ilk yillaridanoq uzoq yillar davomida agrar sohaga ixtisoslashib qolgan respublikada, ijtimoiy – iqtisodiy inqiroz sharoitida ko‘p ukladli iqtisodiyotni barpo etish, agrar munosabatlarning yangi tipini yaratish jarayonlari amalga oshirilishi juda zarur edi. O‘zbekistonda eng avvalo aholini ish bilan ta‘minlaydigan, ularni iste‘mol tovarlari bilan ta‘minlaydigan soha hunarmandchilikni rivojlantirish dolzarb va ustuvor vazifa edi. Ushbu maqolada O‘zbekistonda mustaqillik yillarida qishloq xo‘jaligi sohasida hunarmandchilikni rivojlantirish yo‘lida amalga oshirilgan ishlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: agrar soha, hunarmandchilik, innovatsiya, ko‘p ukladli iqtisodiyot, agrar munosabatlar, ishlab chiqarish, sanoat, islohotlar.

**THE ROLE OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE
ENTREPRENEURSHIP IN THE DEVELOPMENT OF
ENTREPRENEURSHIP IN UZBEKISTAN**

Marozikov Akmal Abdurashidovich

Associate Professor, Kokand State University, (PhD).

Kokand, Uzbekistan.

Abstract: In the first years of independence of Uzbekistan, the republic, which for many years specialized in agriculture, in the context of socio-economic crisis, it was necessary to build a diversified economy, to create a new type of agrarian relations. The development of entrepreneurship in Uzbekistan, which primarily provides employment and consumer goods, was an urgent and priority task. This article analyzes the work done in Uzbekistan during the years of independence to develop entrepreneurship in agriculture.

Keywords: agrarian sector, entrepreneurship, innovation, multi-sectoral economy, agrarian relations, manufacturing, industry, reforms.

РОЛЬ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В РАЗВИТИИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ.

В первые годы независимости Узбекистана, в республике, долгие годы специализировавшейся на сельском хозяйстве, в условиях социально-экономического кризиса необходимо было построить многоотраслевую экономику, создать новый тип аграрных отношений. Развитие предпринимательства в Узбекистане, которое в первую очередь обеспечивает занятость и товары народного потребления, было актуальной и приоритетной задачей. В статье анализируется работа, сделанная в Узбекистане за годы независимости по развитию предпринимательства в сельском хозяйстве.

Ключевые слова: аграрный сектор, предпринимательство, инновации, многоотраслевая экономика, аграрные отношения, производство, промышленность, реформы.

KIRISH. Yagona xalq xo‘jaligining tarkibiy qismiga aylanib qolgan O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan iqtisodiyotda katta

islohotlarni amalga oshirishni talab etdi. Buning uchun avvalo qishloq xo‘jaligida mulkchilik shaklini o‘zgartirish, mehnatning tashkil etishning dehqon uchun tushunarli bo‘lgan turlarini vujudga keltirish lozim edi. Bu borada mulkni isloh qilish va mulkchilikning turli shakllarida o‘tish masalalari muhim bo‘lgan bir paytda respublikada tobora xususiy sektor salohiyatini ko‘tarish muhim masalalardan biriga aylandi. Ammo uzoq yillar mobaynida asosan, agrar sohaga ixtisoslashib qolgan respublikada, ijtimoiy – iqtisodiy inqiroz sharoitida ko‘p ukladli iqtisodiyotni barpo etish, agrar munosabatlarning yangi tipini yaratish jarayonlari amalga oshirilishi juda zarur edi. Binorbarin, bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida aholining xalq iste’mol tovarlariga bo‘lgan talabining ortib borishida asosiy vazifa tabiiyki aholini oziq – ovqat mahsulotlariga, sanoat tarmog‘ini xom ashyoga bo‘lgan talabini qondirish asosiy vazifa bo‘lib qoldi. Buning ustiga aholi sonining yildan - yilga oshib borishi, sanoat va qurilish tarmoqlarining tez rivojlanishi, ayniqsa qishloq xo‘jaligiga yaroqli bo‘lgan erlarga bo‘lgan talabning ortib borishi natijasida respublikada bir kishi hisobiga to‘g‘ri keladigan erlar maydoni tobora kamayib bordi. Respublika qishloqlarida eri yo‘q oilalar soni 240 ming nafar, uy-joy qurilishi va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etishtirish uchun erni kengaytirishga muxtoj oilalar soni 1,8 mln.dan ko‘proq edi [1]. Agar 1976 yilda respublika miqyosida bir kishi hisobiga 0,27 gektar haydaladigan er to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 1995 yilda 0,16 gektarni tashkil etdi yoki 41.2 foizga qisqartirildi. SHu davrda respublika aholisi soni 14.2 mln. kishidan 1996 yil boshiga kelib 23 mln. kishiga oshdi [2]. Bu tabiiyki muammolarni ham keltirib chiqardi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI.

O‘zbekiston Oliy Soveti Prezidiumining 1989 yil 19 avgust “Kolxozchilar, sovxozlarning ishchilari, fuqarolarning shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarini va yakka tartibdagi uy – joy qurilishini rivojlantirish to‘g‘risida”gi Qaror qabul qilingandan so‘ng aholini er bilan ta‘minlash maqsadida o‘tkazilgan tadbirlar o‘z natijasini berdi, Bu qonun qabul qilingandan so‘ng 181 ming gektar er

maydoni aholiga tomorqa uchun ajratib berildi. Biroq islohotlar davomida o'ylamasdan, shoshma – shosharlik bilan erlarni ajratish holatlari ham bo'lib o'tdi. Masalan, 1993-1995 yillarda Farg'ona vodiysida aholi zich yashayotganligi, er maydonlarining boshqa viloyatlarga nisbatan juda chegaralanganligi, jumladan bir kishiga vodiya 0,9 gektar, Farg'ona viloyatida 0,7 gektar, Andijon viloyatida – 0,6 gektar er maydoni to'g'ri kelganligi xususiyatlarini hisobga olmay jamoa va shirkat xo'jaliklaridagi mustaqil fermalarni kredit olish bilan fermerlikka aylantirish oqibatida 1996 yil sentyabrdan boshlab, ular yana juda zaiflashib bordi, mollar soni kamayib, chorva mollarni saqlash va em-xashak bilan ta'minlash sharoiti yomonlashdi, dehqon (fermerlar)dan fermalar jamoa xo'jaliklariga qaytarib olish hollari yuz berdi. Masalan, Farg'ona viloyati Beshariq tumani "Rapqon" jamoa xo'jaligi fermasi 5 mln. so'mga kreditga fermerlikka olingan er katta zarar bilan qaytarib berildi. Bunday holatlar Oltiariq, Farg'ona, Toshloq tumanlarida ham bo'ldi [3].

1991 yil 11 yanvarda "Aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklarini yanada mustahkamlash to'g'risida"gi Farmon chiqib, unga muvofiq 516.6 ming gektar er maydoni aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklariga muddatsiz foydalanish uchun ajratib berildi. Natijada 1993 yilga kelib aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklaridagi ekin maydonlari 343,6 ming gektarga etib, ulardan umumiy foydalanish hisobiga 210 ming tonna don, 1843,6 ming tonna sabzavot, 198,5 ming tonna kartoshka, 363.5 ming tonna poliz mahsulotlari hamda 281,5 ming tonna meva etishtirildi. 1995 yilga kelib respublikada etishtirilayotgan donning 10 foizi, kartoshkaning 42 foizi, sabzavotning 62 foizi, polizning 65 foizi, sutning 75 foizi, tuxumning 43 foizi, juning 64 foizi aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida etishtirildi [4].

1991 yil mustaqillik qo'lga kiritilgach, tabiiyki muammolar ham kelib chiqa boshladi. Iqtisodiy tang ahvolda bo'lgan O'zbekistonda aholini ish bilan ta'minlash muhim muammolardan hisoblandi. Aholining 61 foizdan ortiqrog'i qishloq joylarda yashagan O'zbekistonda esa avvalo mulkchilikni davlat

tasarrufidan chiqarib, uning turli shakllarini rivojlantirish dolzarb bo'lib qoldi. Aholini ish bilan ta'minlash, oila byudjetini yaxshilash va kishilarni xalq iste'mol mollariga bo'lgan talabini qondirishning asosiy yo'llaridan biri qishloq joylarida turli sanoat korxonalarini tashkil etish edi. Bu muhim ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lib, bu birinchidan, qishloq xo'jaligidagi mavjud xom ashyo bazalaridan unumli foydalanish imkonini berar, ikinchidan, aholini ish joylari bilan ta'minlashi, ularning oila byudjetlari, turmush darajasini yaxshilash, uchinchidan, jamoa xo'jaliklarining daromadini oshirish, iqtisodiyotni mustahkamlashi, to'rtinchidan, qishloq joylarida qurilish industriyasini rivojlantirish imkonini berar edi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Aholisi zich joylashgan mintaqalardan biri Farg'ona viloyati edi, bu erning qariyb 70 foiz aholisi qishloqlarda istiqomat qilgan. 1995 yilda viloyatda aholi soni 2444 ming kishini tashkil etib, yiliga aholi o'sishi 2.5 foiz yoki 50-60 ming kishiga ko'paygan. Mavjud aholining 1165,2 mingi mehnatga layoqatli bo'lib, 869,3 ming kishi jamoat sektorlarida, 143,7 ming kishi esa uy xo'jaligida band bo'lganlar. Mehnat resurslarining yillik o'sishi 23,0 ming kishini tashkil qilib, shundan 10 mingi qishloq joylarga to'g'ri kelgan [5]. SHu maqsadda yangi tuzilgan fermer xo'jaliklarining o'rni qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishdagi o'rni yuqori bo'lib bordi. Masalan, Qoraqalpog'iston Respublikasining Taxtakopir tumanida N.Bog'lonov, Samarqand viloyatining Urgut tumanida V.Bozorov, Surxondaryo viloyatining Qumqo'rg'on tumanidan S.Qoraboev, Farg'ona viloyatining Uchko'prik tumanidan M.Ahmedov boshliq fermer xo'jaliklari har gektar erdan 50sentnerdan g'alla etishtirishga muvaffaq bo'lganlar. Huddi shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumanida A.Abdullaev, Namangan viloyati Chortoq tumanidan N.Temirov, Farg'ona viloyati Oxunboboev tumanidan M.Mahmudovalar rahbarlik qilgan fermer xo'jaliklari 75-85 tonna sut, 15-20 tonna go'sht tayyorlashga muvaffaq bo'lganlar [6]. 1996 yilning

ikkinchi yarimida respublikada kichik korxonalarning soni 7622 taga ortgan bo'lsa, shularning 90 foizi xususiy korxonalar xissasiga to'g'ri kelgan [7].

XULOSA VA TAKLIFLAR. Aynan Farg'ona viloyati haqida gapirsak, mustaqillikning dastlabki yillarida Farg'ona viloyatida yordamchi xo'jaliklar O'zbekiston, Buvayda, Beshariq, Quva va Toshloq tumanlaridagi xo'jaliklar alohida o'rnak ko'rsatdi. Beshariq tumanidagi shirkatlar uyushmasida 15 dan ortiq yordamchi xo'jaliklar faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, ularda g'ishtssexi, tikuvchilik, ohak, qandolatchilik, kulolchilik, gilam to'qish, duradgorchilik mahsulotlari ishlab chiqarildi. Bussexlarda 100 mingdan ortiq kishi mehnat qildi. Bunday xo'jaliklarga Beshariq tumanidagi "Rapqon", "O'zbekiston" jamoa xo'jaliklari, Bog'dod tumanidagi "Namuna" jamoa xo'jaligi, Buvayda tumanidagi "Buvayda", "YAngiqo'rg'on" jamoa xo'jaliklari, Toshloq tumanidagi "YAkkatut" va "Zarkent" jamoa xo'jaliklarini kiritish mumkin edi. Bu xo'jaliklarning har birida o'nlab yordamchi xo'jaliklar bo'lib, ularda qishloq yoshlari mehnat qilishdi.

1994-1995 yillarda Beshariq tumani "Rapqon" jamoa xo'jaligida teri oshlash va undan har xil oyoq kiyimlari hamda kurtkalar tikishssexi ishga tushirildi. Bu jamoa xo'jaligi har yili paxta, pilla, meva – sabzovot etishtirish rejalarini bajarib kelgan. Bu erda 13 ta yordamchi va kichik korxonalar barpo etilgan. Ularda 308 nafar qishloq yoshlari mehnat qildi. Toshloq tumani "Zarkent" jamoa xo'jaligida konservassexi va nutriya terisidan telpak tikishssexlari ishga tushirildi [8].

O'zbekiston tumanidagi G'ofur G'ulom nomli jamoa xo'jaligining aholisi zich joylashgan bo'lib, har bir jon boshiga 0,09 gektardan ekin maydoni, har bir ishlovchi hisobiga esa 0,6 gektardan ekin maydoni to'g'ri kelar edi. Bu xo'jalikda dehqonchilikning boshqa tarmoqlari qatori chorvachilik ham rivojlantirildi. Xo'jalikning jami er maydoni 3.612 gektar, aholi soni esa 24.500 kishini tashkil qilgan bo'lsa, shundan 3.250 nafari jamoa xo'jaligida ishladi. Xo'jalik o'zida etishtirgan xom – ashyoni qayta ishlab, mahsulot holiga keltirib

ishlaydigan g'isht, konserva, atlas, gilam, sharf va ro'mol to'qish, tikuvchilik, ohak ishlab chiqarish, kulolchilik, ipak tolasi ishlab chiqarish, sholcha to'qish, telpak tikish, makoranssexlari ishlab chiqaruvchi korxonalar sonini ko'paytirishi natijasida ularning soni 16 taga etdi. 1993 yilda esa paxta tozalashssexi ishga tushirilib, Nursux qishlog'ining 30 nafar yoshlarini ish bilan ta'minlagan. Zavod kompleksiga kirgan to'qimachiliksssexida 3 mahsulot: paypoq, gazlama va tayyor kiyim –kechak ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan va 86 nafar kishi ish bilan ta'minlangan, atlas to'qishssexida 35 kishi mehnat qildi [9].

1995 yilda belgilangan 61000 korxona tuzilishi o'rniga 64428 ta kichik va o'rta korxonalar tashkil topdi. Farg'ona vodiysining o'zida Andijonda 5272 ta, Farg'onada 5005 ta, Namanganda 5010 ta kichik korxonalar tuzilib, o'z faoliyatini olib borganlar [10].

Bunday korxonalarni rivojlantirish, xalqaro bozorda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqaradigan yangi korxonalar barpo etish va mavjud quvatlarni modernizatsiya qilish tizimli ravishda davom ettirildi. Eksport qiluvchi korxonalar har tomonlama qo'llab –quvvatlanib, kichik biznes va xususiy hunarmandchilik sub'ektlari eksport faoliyatiga keng jalb qilindi. SHuningdek, sarmoya kirituvchi korxonalar, tashkilotlar bilan ham hamkorlik yo'lga qo'yildi.

Umuman. Mustaqillik yillari O'zbekistonda sovet davlatidan so'ng qolgan murakkab iqtisodiy ahvolni izga solish borasida bir qator tadbirlar amalga oshirilsada, tang ahvolda qolgan qishloq xo'jaligi, sanoatni izga solib olishda o'ziga xos murakkab vaziyatlar kelib chiqdi. O'zbekiston, ayniqsa Farg'ona viloyati tumanlarining qishloq xo'jaligiga moslashganligi bu erda asosan dehqonchilik bilan shug'ullanish lozimligini ko'rsatdi. Biroq, mustaqillikning dastlabki yillari bu o'ziga xos qiyinchilar bilan amalga oshirildi.

ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Oblomurodov N., Tolipov F. O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillarida mulkchilik va tadbir-korlikning ahvoli: yutuqlar, muammolar va echimlar // O'zbekistonda ijtimoiy FANLAR. 2-3/2019. -24 bet.
2. G'ofurov A, Usmonova Z. Er resurslaridan foydalanish muammolari // Iqtisod va hisobot. 1997. -№3, – 15 bet.
3. G'ofurov A., Usmonova Z. Er resurslaridan foydalanish muammolari // Iqtisod va hisobot. 1997, - №3,- 15 bet.
4. Nabiev E., G'oyibnazarov B. Tomorqaning ahamiyati // qtisod va hisobot. 1995. -№??, - 64 bet.
5. Yo'ldoshev B., YUsupov O. Farovon turmush sari (Qishloq joylarida yordamchi sanoat korxonalarini rivojlantirish haqida) // Iqtisod va hisobot. 1996. -№11, - 30 bet.
6. Siddiqov B. Istiqbolni belgilovchi omil // Iqtisod va hisobot. 1996. №3-4. – 46 bet.
7. G'ofurov U. Kichik biznesning katta imkoniyatlari // Iqtisod va hisobot. 1997. -№11-12, -17 bet.
8. Yo'ldoshev B., YUsupov O. Farovon turmush sari (Qishloq joylarida yordamchi sanoat korxonalarini rivojlantirish haqida) // Iqtisod va hisobot. 1996. -№11, - 30 bet.
9. Yo'ldoshev B., YUsupov O. Farovon turmush sari (Qishloq joylarida yordamchi sanoat korxonalarini rivojlantirish haqida) // Iqtisod va hisobot. 1996. -№11, - 30 bet.
10. Oripov O. Rivojlanish omili // Iqtisod va hisobot. 1995. -№8, - 11 bet.